

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                                                                              |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>G.M.Bozorova</b>                                                                                                                          |     |
| Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....                                                                          | 115 |
| <b>L.S.Sultonova</b>                                                                                                                         |     |
| Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....            | 119 |
| <b>U.K.Kurbanova</b>                                                                                                                         |     |
| Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili .....                                                                  | 124 |
| <b>M.H.Mo'minova</b>                                                                                                                         |     |
| Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni .....                                                                 | 128 |
| <b>K.J.Ochilova</b>                                                                                                                          |     |
| Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili .....                                                                                    | 132 |
| <b>B.X.Karimov</b>                                                                                                                           |     |
| Ongni boshqarish falsafasi.....                                                                                                              | 136 |
| <b>R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova</b>                                                                                                          |     |
| Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim .....                                                                                       | 141 |
| <b>P.X.Qaxorov</b>                                                                                                                           |     |
| Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi .....                                                                    | 147 |
| <b>U.M.Paxriddinov</b>                                                                                                                       |     |
| Globalashuv jarayonlarining O'zbekistondagi mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....                                | 152 |
| <b>Z.B.G'ulomov</b>                                                                                                                          |     |
| Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari..... | 158 |
| <b>A.A.Tojiddinov</b>                                                                                                                        |     |
| Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari .....                                                   | 164 |
| <b>G.A.Qamariddinova</b>                                                                                                                     |     |
| "Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili .....                                | 172 |
| <b>H.H.Yuldashxodjaev</b>                                                                                                                    |     |
| Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....                                         | 175 |
| <b>H.H.Yuldashxodjaev</b>                                                                                                                    |     |
| Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....                                | 180 |
| <b>Z.I.Narziyev</b>                                                                                                                          |     |
| Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba .....                                                            | 185 |
| <b>M.M.Mamasaliyev</b>                                                                                                                       |     |
| Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....                                              | 189 |

## SIYOSAT

|                                                                                                                                                          |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>T.A.Azizov</b>                                                                                                                                        |     |
| Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari..... | 193 |
| <b>S.U.Yuldashev</b>                                                                                                                                     |     |
| Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish .....                                                                        | 197 |
| <b>O'.N.Ahmedova</b>                                                                                                                                     |     |
| Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'naviy tarbiya strategiyasi .....                                                                                           | 201 |
| <b>X.R.Ikramov</b>                                                                                                                                       |     |
| Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati.....                                          | 205 |
| <b>A.M.Abjalov</b>                                                                                                                                       |     |
| Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati .....                                                     | 210 |
| <b>G.B.Umarova, A.Nurullaeva</b>                                                                                                                         |     |
| Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi .....                                                                      | 214 |
| <b>S.S.Yakubov</b>                                                                                                                                       |     |
| Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi .....                                                                                                         | 218 |



UO'K- 300.008:9(575.1)

**DAVLAT BOSHQARUVIDA IJTIMOY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNING  
RATSIONALLASHTIRISH****РАТСИОНАЛИЗАЦИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УПРАВЛЕНИИ****RATIONALIZATION OF SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES IN PUBLIC  
ADMINISTRATION****Yuldashev Serobjon Urmonaliyevich** 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti falsafa fanlari doktori (DSc)

**Annotasiya**

Mazkur maqolada global o'zgarish jamiyatning yangicha miqdor va sifat o'zgarishlari jarayonida yashashi davlat boshqaruvini jamiyatning transformasiyalashuv jarayonidagi ijtimoiy-siyosiy sabablar yo'ritilgan. Ayni paytda yangi mingyillikning asosiy muammosi sifatida ijtimoiy texnologiyalarni rivojlanishi, jamiyat ijtimoiy-madaniy qiyofasini o'zgartirishga bo'lgan munosabatlar o'rtasidagi o'zaro qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni strategik dasturlash orqali hal etish zarurati tadqiq etilgan.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются социально-политические причины трансформации государственного управления в процессе глобального изменения общества в процессе новых количественных и качественных изменений. В настоящее время в качестве основной проблемы нового тысячелетия исследуются противоречия между развитием социальных технологий, отношениями к изменению социокультурного имиджа общества, необходимость разрешения конфликтов посредством стратегического программирования.

**Abstract**

In this article, the socio-political reasons for the process of transformation of public management into society are explained by the fact that global change lives in the process of new quantitative and qualitative changes of society. At the moment, as the main problem of the new millennium, the development of social technologies, mutual contradictions between attitudes towards changing the socio-cultural image of society, the need to resolve conflicts through strategic programming have been studied.

**Kalit so'zlar:** Davlat, boshqaruv, strategiya, siyosat, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar.

**Ключевые слова:** Государство, управление, стратегия, политика, общество, социально-политические, социокультурные технологии.

**Key words:** State, management, strategy, politics, society, socio-political, socio-cultural technologies.

**KIRISH**

Davlat va jamiyat boshqaruvi hozirgi zamonda tadqiqotchilari va ziyolilari tomonidan o'rganilayotgan tadqiqot ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, boshqaruvchilarga samarali kommunikatsiyalarni tarkibini, mazmunini va "kuchi"ni u yoki bu boshqaruv elementlarini ko'rsatuvchi takliflar ham kamdek nazarimizda. Shu sababli davlat va jamiyat boshqaruvchilarining fe'l-atvorini samarali modellarini yaratish muhit ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat va jamiyat boshqaruvida ratsional jarayonlarni shakllantirish borada quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ta'minlash ko'p jihatdan siyosiy jabhada, ayniqsa, davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

Bizning qadimgi tariximizda ham boshqaruvning demokratik ildizlari mavjud bo'lganini, xalq hayotiga daxldor eng muhim masalalar qurultoy, kengash va mashvaratlar orqali hal etilganini ko'rish mumkin"[1.78.]. Ta'kidlash lozimki, davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni ratsionalistik jihatdan o'rganish ko'pchilik tadqiqotchilar ishlarida aks ettirilmagan. Bizningcha, agar

“davlat boshqaruvi” ilmiy adabiyotlarda boshqaruv elementlaridan boshqaruv faoliyatida foydalanish mumkinligi to'g'risidagi takliflar uchraydi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Abu Nasr Forobiy “Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar”[2.190.]. deb davlat va jamiyat boshqaruvi tamoyillarini aks ettiruvchi rahbarlarga bo'lgan e'tiborni axloqiy va madaniy jihatlarini asoslaydi. Davlat va jamiyat boshqaruvida adolat ustuvorligini nazariy asoslarini yaratish borasida Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari muhim manba hisoblanadi. U rahbar kadrlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolatli va insofli bo'lish zarurligini, davlat va jamiyat boshqaruvida kengash bilan ish olib borish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish kabi sifatleri to'g'risidagi qarashlarni ilgari suradi[3.26.]. Ayniqsa, adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaholatga olib kelishi to'g'risidagi qarashlari o'z hayotiy tajribasida ifodalagan mutafakkir Alisher Navoiyni quyidagi fikrlari ahamiyatlidir: “...davlat ishi bilan mashg'ul bo'lgan amaldorlik chog'larimda ko'ngil mulkini turli odamlarning hujumi bulg'aladi. Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so'rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko'rsatdim”[4.12.]. Bu bilan jamiyatda adolat tushunchasi shakllanishi muhim omili ekanligini keltirib o'tadi.

“Davlat va jamiyatni boshqarishda shaxsdan aql-idrokka asoslanish talab qilinadi. Inson faoliyatida aqlga muvofiqlik xilma-xil ehtiyojlarni aniqlashda, ijtimoiy va individual faoliyatni rejalashtirishda, voqelikni tushunish va kelajakni bashorat etishda katta roll o'ynaydi”[5.14.]. Boshqarishda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish jamiyatni ilmiy boshqarishning ijtimoiy-madaniy texnologiyalarini qanchalik joriy etilgani bilan bog'liqdir.

Insoniyat ijtimoiy taraqqiyot davrida hokimiyat manfaati va ijtimoiy ehtiyojlar uyg'unligini ta'minlash yo'llarini izlab kelgan. Bu o'rinda jamiyat manfaatiga mos keladigan shaxsiy manfaatlar hamda fuqarolar manfaatlaridan kelib chiquvchi umumiy davlat manfaati hisobga olinishi lozim bo'ladi. Davlat har qanday kuchli darajada qudratli bo'lmasin kishilar manfaati va ehtiyojlari mamlakat miqyosida muvofiqlashtirish kuchi bilangina amalga oshirib bo'lmaydi. Davlat boshqaruvida biz uchun nisbatan yangi, lekin ko'plab rivojlangan demokratik mamlakatlarda amal qilayotgan 2022 yil 8 avgust O'zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi Qonuni[6.] qabul qilindi.

Hokimiyatni boshqaruv jarayonini elementini belgilash demakdir, bu imkoniyat, undan foydalanuvchiga, shu bilan birga hokimiyat kimga nisbatan qo'llanilayotganiga ham ko'rsatib turadi, ular o'rtasida o'zaro qaramlik mavjud. Hokimiyat kimga nisbatan qo'llanilayotganiga qarab, ayrim harakat erkinligiga ega bo'ladi. Hokimiyat mavjud bo'lishi mumkin, shu bilan bir vaqtda undan foydalanmaslik ham mumkin. Agar xodim qoidaga rioya qilib ishlasa, rahbar tomonidan unga nisbatan hokimiyatini qo'llash zarurati bo'lmaydi.

Hokimiyat- bu qaramlikni funktsiyasi, aniqrog'i o'zaro qaramlikdan iborat. Bitta odam boshqasiga qaram bo'lsa, unda ham ikkinchisida ham kattaroq, ko'proq hokimiyatdir. Ushbu tushunchaning mantiqiy xulosasi shundaki, bir tomonda hokimiyat qanchalik katta bo'lsa, qarshi tomonda ham shunchalik katta bo'ladi. Hokimiyatga ega bo'lish – bu ehtiyojlarni qondirishga ta'sir o'tkazishning imkoniyatidir. Hokimiyat-o'zining mohiyatiga ko'ra ijtimoiy termin hisoblanadi. Bir individ, shaxs boshqasiga nisbatan hokimiyatga ega, bir guruh boshqasiga nisbatan va hakozi. Hokimiyat konseptsiyasi tashkilotdagi odamlar va guruhlarining o'zaro harakatiga quriladi. hokimiyatdan boshliqlar ham, bo'ysunadiganlar ham o'z maqsadalariga erishish va holatini mustahkamlash yo'lida foydalanadi. Hokimiyat tashkilotning butun hayotiga singib ketadi, uni tuzilishini qo'llab-quvvatlaydi. Hokimiyatsiz tashkilot yo'q. Hokimiyatni qo'llashdagi yutuq yoki omadsizlik, unga nisbatan reaktiv harakat hokimiyatni tushunish bilan aniqlanadi. Undan qanday va qachon foydalanishni bilish, shuningdek, undan foydalanishning oqibatlarini oldindan ko'ra olish bilan ham hokimiyat mavqeiga ta'sir qiladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy bilishning tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish kabi usullaridan foydalanilgan. Hokimiyat hech qachon mutloq va o'zgarmas bo'lmaydi. Hokimiyat – bu harakatdagi munosabatlar, vaziyatlarda ham, kishilarning ham o'zgarib turuvchi munosabatlaridir. Rahbarlarning turli vaqtlardagi reytingi muntazam o'zgarib borganligi ma'lum. Shuning uchun ham hokimiyat

## SIYOSAT

munosabatlarini tushunmoq uchun konkret vaziyatni va unga kim jalb etilganligini aniqlash talab qilinadi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Hokimiyat texnologiyasi umumiy ko'rinishda ko'rsatilgan va ularning qisqacha xarakteristikasi quyidagicha.

Qonuniy hokimiyat – bu an'anaga muvofiq bo'ysinuvchilarni rasmiy tashkilot rahbariyatini nufuzi-avtoriteti tan olishga tayyorligi.

An'analar keng tarqalgan va rahbarning rasmiy ta'sir ko'rsatishi shakli sifatida qolmoqda va ijobiy taqdirlanishni nazarda tutadi. Ehtiyojlarni qondirish qaysidir mansabga tashkilot a'zosi sifatida bo'lish va shunga muvofiq ish haqi olish.

Ekspertli hokimiyat-bu rahbari o'z tayyorgarligi va ma'lumot darajasi, tajriba va talanti, qobiliyati va ko'nikmalari, shuningdek maxsuslashtirilgan bilimlarga egaligi bilan bo'ysinuvchilarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati. Ekspert hokimiyati qat'iy belgilangan mansab vazifa bilan bog'liq emas. Ekspert hokimiyatining darajasi rahbari o'zini bo'ysinuvchilarining ish faoliyatini analiz qilish, baholash va nazorat qilishda namoyon etadigan bilimdonlik darajasi bilan o'lchanadi. Bilimlardagi mutaxassislik ekspert hokimiyatini qo'llashni cheklaydi. Bunday hokimiyat etishmasligi bilan yosh rahbarlar qiynaladi, ular uchun hokimiyatni egallash va undan samarali foydalanish uchun vaqt talab qilinadi.

Majbur qilishga asoslangan hokimiyat-bu boshqaruvchini o'zining bo'ysinuvchilarining fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatish uchun jazolash, xayfsan e'lon qilish, jarima, mansab-vazifasidan pastlatish, ishdan bo'shatish kabi usullarni qo'llaydi. Bo'ysinuvchilar ko'rsatmalarga rioya qiladi, chunki jazolanishdan qo'rqadi. Shuning uchun hokimiyatni ushbu ta'sir etishni manbaini qo'rqitish tashkil etadi. Lekin qo'rquv tashabbusni, ijodkorlikni cheklaydi-bu ishni susayishiga olib kelishi mumkin. Bu ayniqsa tadbirkorlik tashkilotlariga taalluqli. Rahbarlarning o'zi noto'g'ri harakatlari bilan majbur qilish, bo'ysinuvchilarni adolatsiz jazolash bilan hokimiyatni kuchsizlantirishi mumkin.

Hokimiyat boshqaruvchining bo'ysinuvchilarni fe'l-atvoriga ta'sir qilish qobiliyati bilan bog'liq, u bunga o'zining jozibaliligi va xarizmatik xususiyatiga ega ekanligi bilan bog'liq. Xarizma-bu hokimiyat, rahbarning shaxsiy fazilatlar va boshqarish stilidir. Boshqaruvchining kimlarga ruhiy va amaliy idealga aylanishi, hamma narsada unga taqlid qilishni shakllantiradi, unga ko'proq sajda qiladi, shuning bilan hokimiyatni shaxsiy asoslarini mustahkamlaydi.

Ishonch, ishontirish hokimiyati-bu o'zining nuqtai-nazarini yoki tutgan o'rni-mavqeyini samarali o'tkaza olishi. Ishontirish – e'tiqod namuna ko'rsatish va ekspert hokimiyatiga asoslangan. Bunda g'oyalarni yoki formulalarni sotish, qanday harakat qilish va gapirish me'yorlari ishlab chiqiladi. Bu sharoitda rahbar o'zini bajaruvchilar oldida qaram ekanligini namoyish etadi. Ishontirish texnologiyalari samarali bo'lishi uchun rahbar shaxsiy sifatlarini boshqalar uchun foydali ekanligini ko'rsata olishi kerak.

Boshqa kishining atrofini manipulyatsiya qilish-murakkab ishlarni, harakatlarni amalga oshirish-bu turli axborot vositalarini qo'llash bo'lib, rahbariyatni yoki alohida shaxslarni fikrlari yoki egallagan marralarini ifoda etuvchi vosita, ushbu kishining manfaatlari uchun xizmat qiladi. Atrofdagilarni o'ziga tortishda alohida xislatga ega bo'ladi.

Kuchlarning o'zgarishini manipuliravat qilishni texnologiyalari, qaysiki operatsiyalar darajasida harakat qiladi.

Ushbu texnologiyalar ma'lum qismda bir-biriga o'xshash, ya'ni o'xshash operatsiyalarga ega, ammo bir-biridan metodlari va vositalari bilan qat'iy farq qiladi, qaysiki oxir oqibatda amaliyotda va natijalarda muhim farqlarni yaratadi.

**XULOSA**

Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish zarurati borasidagi tadqiqotlarimiz "Yurtimizda uzoq yillar davomida **"davlat-jamiyat-inson" tamoyiliga** amal qilib kelindi. Davlat qurilishi va boshqaruvi, barcha siyosiy tuzulmalar, ularning ish uslubi va faoliyati ham ana shu tamoyil asosida shakllandi.

Aslida esa, avvalo, inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo'lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g'oyaga tayanishi hamda **"Davlat-inson uchun", "inson-jamiyat-davlat" tamoyillari asosida tashkil** etilishi darkor.

Tarix shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha sivilizatsiyalar, madaniyat va dinlar inson huquqlari to'g'risidagi tayanch tushunchalarning shakllanishiga asos bo'lgan ezgu g'oyalar ta'sirida vujudga kelgan"[1.59.], degan g'oya asosiga tayanadi.

Davlat va jamiyat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish maqsadga yo'naltirilgan va samarali qo'llaniladigan eng muhim vositalardan biri boshqaruv jarayonini va boshqaruvni texnologizatsiyalashdan iborat. Boshqaruv elementlari va ulardan foydalanish to'g'risidagi takliflarni adabiyotlarda yo'qligi yosh mutaxassislarni barcha darajadagi o'qitish jarayonlarni murakkablashtiradi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. Ўзбекистон. 2022.
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент. Янги аср авлоди нашриёти. 2016.
3. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки Сияр ул-мулк. –Тошкент.: Адолат, 2016.
4. Навоий. А. Маҳбуб ул- Қулуб. –Тошкент. Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2010.
5. Мамаюсупов У.Қ. Башоратнинг назарий-методологик асослари ва унинг илмий билишдаги ўрни. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Тошкент. 2019.
6. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августдаги “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги ЎРҚ-788-сон Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.08.2022 й., 03/22/788/0723-сон.